



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В
РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА**

**INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT USE IN SMALL BUSINESS
DEVELOPMENT**

Numonjonova Nargiza Ashuraliyevna
Andijon davlat texnika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mamlakatimizda, jumladan, Andijon viloyatida kichik biznesda investitsiyalardan foydalanish samaradorligi hamda ularni rivojlanish tendensiyalari o‘rganilib tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi va Andijon viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning kichik biznesdagi ulushi solishtirma tahlil qilingan hamda investitsiya me‘yorlari aniqlangan. Unga ko‘ra Andijon viloyatida kichik biznesda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, investitsiyalar, iqtisodiy o‘sish, investitsiya salohiyati, investitsion faoliyat, iqtisodiy barqarorlik, investitsiya me‘yori, investitsiya samaradorligi.

В данной статье анализируется эффективность использования инвестиций в малом бизнесе нашей страны, в том числе в Андижанской области, и тенденции их развития. Проведен сравнительный анализ доли основных средств, вложенных в малый бизнес в Республике Узбекистан и Андижанской области, и определены инвестиционные стандарты. На основе полученных данных разработаны научные предложения и практические рекомендации по повышению эффективности использования инвестиций в малом бизнесе Андижанской области.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиции, экономический рост, инвестиционный потенциал, инвестиционная активность, экономическая стабильность, инвестиционный стандарт, эффективность инвестиций.

This article analyzes the effectiveness of investments in small businesses in our country, including in the Andijan region, and their development trends. A comparative analysis of the share of fixed assets invested in small businesses in the Republic of Uzbekistan and the Andijan region is conducted, and investment standards are identified. Based on the data obtained, scientific proposals and practical recommendations for improving the effectiveness of investments in small businesses in the Andijan region are developed.

Keywords: small business, investment, economic growth, investment potential, investment activity, economic stability, investment standard, investment efficiency.

Bugungi kunda, mamlakatda kichik biznesda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Kichik biznes korxonalari faoliyatida investitsiyalardan samarali foydalanishda eng avvalo mazkur sektorga jalb etilgan investitsiyalar tarkibini takomillashtirish zarur. Zero, investitsiya resurslaridan samarali foydalanish ular tarkibiy tuzilmasining holatiga bog‘liq. Agar investitsiyalarning tarkibiy tuzilmasi bozor mexanizmi talablari ta‘siri ostida, optimal tarzda shakllantirilsa, u holda investitsiyalardan foydalanish ham samarali bo‘ladi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz” deya ta’kidlagan [1].

Shu nuqtai nazardan, kichik biznes sohasida ham investitsiyaga bo‘lgan talab, investitsiyaga yo‘naltiriladigan mablag‘larning yetishmasligi investitsiya resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Chunki qo‘yilgan kapital mablag‘idan samarali foydalanish natijasida ko‘proq foyda olish imoniyatidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda, Andijon viloyatda kichik biznesda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi, mamlakat miqyosidagi yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushiga nisbatan ko‘rib chiqsak.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida hamda Andijon viloyati bo‘yicha kichik biznesda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi

№	Yillar	O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi (foizda)	Andijon viloyatida kichik biznesda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushi (foizda)
1	2018	38,0	53,8
2	2019	44,3	67,3
3	2020	46,0	63,5
4	2021	45,6	54,8
5	2022	47,9	59,0
6	2023	51,4	72,0
7	2024	51,8	74,1
8	2025	61,4	81,5

Manba: stat.uz

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra Andijon viloyati Respublikamizda yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega ekanligini ko‘rib turibmiz. Bu yerda ko‘rsatkichlar jami investitsiyalarga nisbatan kichik biznesdagi ulushi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda Andijon viloyatida kichik biznesga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushining O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha kichik biznesga yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushidan yuqoriligini viloyatda yirik biznesga nisbatan kichik biznesning rivojlanish tendensiyasi yuqoriligi bilan izohlashimiz mumkin

Mamlakatimizda 2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 362 910,0 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 61,4 % ni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,9 foizni tashkil qildi. Andijon viloyatida esa 2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 20 011,0 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 81,5 % ni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2024- yilga nisbatan 129,4 % ni tashkil qildi [3].

Kichik biznes sohasida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlilida keng qo‘llaniladigan investitsiya me‘yori ko‘rsatkichi ham aynan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning YaIM (YaHM) nisbati bilan aniqlanadi. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi hamda Andijon viloyati bo‘yicha 2018-2025-yillar davomida kichik biznes sohasida investitsiyalash me‘yorini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$IM^{kb} = \frac{I_t^{kb}}{YaIM(YaHM)_t^{kb}} * 100\%$$

Bu yerda, IM^{kb} – kichik biznesda investitsiya me‘yori;

I_t^{kb} –i-hududda, t-davrda kichik biznesda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, so‘m;

$YaIM(YaHM)_t^{kb}$ –i-hududda, t-davrda YaIM (YaHM) ning kichik biznesdagi hajmi, so‘mda.

2-jadval ma’lumotlariga ko’ra O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes sohasidagi asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar me’yori Andijon viloyati bo‘yicha kichik biznesga yo‘naltirilgan investitsiyalar me’yoriga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rib turibmiz. Tadqiqot olib borilayotgan 2018-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha investitsiya me’yori 25,1 foizni, Andijon viloyatida bu ko‘rsatkich 20,1 foizni tashkil etmoqda.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida hamda Andijon viloyati bo‘yicha kichik biznesda investitsiya me’yori (foizda)

№	Yillar	O‘zbekiston Respublikasida kichik biznesda o‘rtacha investitsiya me’yori (foizda)	Andijon viloyatida kichik biznesda o‘rtacha investitsiya me’yori (foizda)
1	2018	18,0	13,8
2	2019	29,4	23,5
3	2020	29,1	21,5
4	2021	27,3	20,1
5	2022	27,6	21,6
6	2023	33,1	29,0
7	2024	32,4	29,8
8	2025	33,2	30,1
	o‘rtacha investitsiya me’yori	25,1	20,1

Manba: stat.uz

Andijon viloyatida 2019-yildan boshlab, kichik biznes sohasida investitsiya me’yori, tadqiqot davridagi o‘rtacha investitsiya me’yoridan yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunga ko‘ra viloyatda ushbu davrlarda boshqa yillarga nisbatan ko‘proq investitsiya resurslari jalb qilinganligi sababli, investitsion faollik darajasi yuqori bo‘lgan deb izohlashimiz mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning o‘zlashtirilishini samaradorligini oshirishda investitsion muhit bilan bog‘liq moliyaviy masalalarni va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishdagi muammolar tizimli tartibda hal etib borilmoqda. Investitsion faoliyat strategiyasining uzoq davr uchun amal qilishi, investitsion resurslarning umumiyliigi, tarmoq va korxona doirasida investitsiyalarni joylashtirishning davlat hokimiyati organlari tomonidan foydalaniladigan ta’sir yetuvchi usullar, vositalar va ta’sir kuchlariga qarab o‘zgarib boradi. U jarayonning tarkibiy yo‘nalishi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi [2]:

- investitsion faoliyat strategiyasining taktik va strategik boshqaruv mezonlariga muvofiqligi;
- investitsion faoliyat boshqaruv omillarining maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan turli elementlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq;

- menejment resurslari, tanlangan boshqaruv uslubi qo‘llanilgan va maqsadga erishilgan holda foydalaniladigan moddiy, texnik, moliyaviy, ijtimoiy, institutsional va boshqa manbalar.

Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishida va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda puxta o‘ylangan investitsiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investitsiyalar iqtisodiyot taraqqiyotning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta’minlaydi. Shu o‘rinda investitsiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investitsiya siyosatini yuritilayotganligini ushbu ko‘rsatkichlarda ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi 2023-yilda 42,1 trln so‘m, 2024-yilda 55,6 trln so‘m, 2025-yilda esa 69,8 trln so‘mni tashkil qilgan. 2026-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 105 105,1 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi

67,2 % ni tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2025-yilning mos davriga nisbatan 146,9 % ni tashkil qildi. So‘nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar deyarli 2,9 barobarga ko‘paydi, shuningdek, 2025-yil yanvar-mart oylarida 2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 15,9 trln so‘mga ko‘p investitsiyalar o‘zlashtirildi [3].

Kichik biznes sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmining ortishi, o‘z navbatida sohada ishlab chiqarish hajmining ortishiga va aholi bandligini ta‘minlashga, uning barqaror rivojlanishi hamda tarkibiy o‘zgarishlarning jadallashuviga sabab bo‘ladi. Buning pirovard natijasi mamlakatda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mintaqalarda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda bir qator omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning rolini oshiruvchi va o‘shishning aksariyat an‘anaviy omillari ta‘sirini kamaytiruvchi texnologik o‘zgarishlarning yangi to‘lqini kutilmoqda. So‘nggi avlod texnologiyalarini rivojlantirishda orqada qolish mintaqalar iqtisodiy raqobatdoshligini pasaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, kichik biznesga ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish va ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish hamda quyidagi vazifalarning amalga oshirish lozim:

- investorlarning qo‘shilmalarini davlat tomonidan himoyalashni takomillashtirish hamda sug‘urtalash, hududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga yo‘naltirilgan dasturiy platformalarni ishlab chiqish;
- hududlarga investitsiyalarni jalb etish va ularni o‘zlashtirishda soliq imtiyozlarini takomillashtirish, hududda qolayotgan soliq tushumlari ulushini o‘shishda keng imtiyozlar berish bo‘yicha normativ bazani takomillashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sanoat tarmoqlarining ichki tarkibini qayta-ko‘rib chiqish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda innovatsion texnologiyalarini joriy etish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. М.Э.Жураханов «Роль малого бизнеса в национальной экономике и пути его развития» "Collquium-journal" #34 (121) 10.12.2021, ISSN 2520-6990 <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-malogo-biznesa-v-natsionalnoy-ekonomike-i-puti-ego-razvitie/viewer>
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari.2026- yil